



Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

SINONIMLARNI O'RGANISH JARAYONIDA TAQQOSLASH , TAHLIL QILISH

Maxanova Feruza Mamarajabovna

Shahrisabz davlat pedagogika institute mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Maqsud Shayxzoda sinonimlarni o'rganish jarayonida taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish va boshqa kognitiv jarayonlar haqida fikr yuritilgan. Hamda shoir Maqsud Shayxzoda she'rlarida uchraydigan sinonimlarning lingvopoetika jihatlarini xususida ayrim mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: sinonimlar, lingvopoetik xususiyatlar, polesemanika, leksema, leksek va kontekstual sinonimlar , kontekst ,stilistik funksiyalar.

Sinonimlarni o'rganish va qo'llash matnning lingvodidaktik ahamiyati uchun muhim o'rin tutadi. O'quvchilarga sinonimlarning ma'nosi, qo'llanilish sohasi, stilistik xususiyatlari haqida tushuncha berish, ularni badiiy asarlarda tahlil qilishni o'rgatish zarur. Sinonimlarning stilistik funksiyalarini tushunish o'quvchiga o'z fikrlarini aniq va ifodali bayon etishga, badiiy asarlarni chuqurroq tushunishga va o'z ijodiy yozuvlarida ushbu vositadan samarali foydalanishga yordam beradi.

Sinonimlarni o'rganish jarayonida taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish va boshqa kognitiv jarayonlar rivojlanadi. Buning uchun adib she'rlaridan foydalangan holda turli xil didaktik usullar, jumladan, guruhli ishlar, o'yinlar, badiiy matnlarni tahlil qilish va ijodiy yozuv mashqlari qo'llanilishi mumkin. Masalan, talabalarga ma'lum bir obrazni turli xil sinonimlar yordamida ifodalash topshirig'ini berish orqali ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish



Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

mumkin. Bundan tashqari, sinonimlarni o'rganish orqali talabalarning lug'at boyligi kengayadi, ularning nutqi boy va ifodali bo'ladi.

Sinonimlardan obrazlilikni kuchaytirish uchun foydalanishning ko'plab namunalari mavjud. Masalan, Maqsud Shayxzoda she'rlarida turli xil his-tuyg'ularni ifodalashda sinonimlarning ajoyib qo'llanilishiga guvoh bo'lamiz. Uning she'rlarida badiiy uslubga xos sinonimlarning turli kontekstlardagi qo'llanilishi obrazning murakkabligi va chuqurligini ochib beradi. Zamonaviy adabiyotda ham sinonimlar obrazlarni yoritishda muhim rol oynaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, badiiy obraz xarakterini yoritishda sinonimlarning roli beqiyosdir. Ularning lingvokulturalogik, lingvopoetik va lingvodidaktik ahamiyatini tushunish adabiy asarlarni chuqurroq anglashga, til boyligini oshirishga va ijodiy yozuvni rivojlantirishga yordam beradi. Sinonimlarni o'rganish nafaqat tilni, balki madaniyatni ham chuqurroq tushunishga imkon beradi. Keyingi boblarda sinonimlarning turli adabiy janrlardagi qo'llanilishi va ularning stilistik funksiyalarining xususiyatlari yanada chuqurroq o'rganilishi to'xtalib o'tamiz. Sinonimlarning badiiy obrazlarni yaratishdagi ahamiyatini o'rganish adabiyot nazariyasi va tilshunoslikning rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Sinonimlar she'riy obrazlarning ritm va ohangiga ta'sir ko'rsatadi, she'rga o'ziga xos musiqiylik bag'ishlaydi. Asosiy sinonimning bir-biriga yaqin sinonimlar bilan almashinuvi matnning ritmik va ohangli uyg'unligini yaratishga, she'rning ohangini yanada ta'sirchan qilishga xizmat qiladi. Shoirning "Toshkentnma" dostonidan olingan quyidagi bandlarda bunga guvoh bo'lamiz.

Shaharlar **boqiydir**, umr **o'tkinchi**,

Daryolar **sobitdir**, suvlar – **ko'chkinchi**.

Har kim o'z shahrida quygan esdalik,

Yo bino qurishda katta ustalik.



Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

Misradagi shaharlar – daryolar bir qarashda umuman aloqasi yo‘qdek tuyuladi, biroq kontestda ma’noviy yaqinlik anglashiladi. Bu ikki so‘z leksik jihatdan sinonim emas, lekin kontekstda sinonim vazifasini bajaradi. Ikkala so‘z ham uzoq muddatli, doimiylik, davomiylik, barqarorlik semalari bilan ma’noviy yaqinlikni ifodalaydi. She’rda shaharlarning va daryolarning doimiyligi, o‘zgarmasligi ta’kidlanadi, bu esa ularning boqiylik xususiyatini aks ettiradi. Bu lingvopoetik jihatdan antitezaga asoslangan taqqoslashdir. Shahar va daryo – turli xil tabiat hodisalari bo‘lsada, ularning doimiyligi orqali umr va suvning o‘zgaruvchanligini ta’kidlashga xizmat qiladi.

Umur – Suv leksemalarida ham kontekstda ma’noviy yaqinlik mavjud. Bu ikki leksema, odatda, sinonim emas, lekin she’r kontekstida “harakatlanishj”, “o’tish”, “o‘zgarish” semalari bilan sinonim vazifasini bajaradi. “Umur o’tkinchi”ligi “suvlar ko‘chkinchi”ligi satrlarda ma’noviy yaqinlik sifatida qo‘llangan. “Ko‘chkinchi” so‘zi “o’tkinchi” so‘zining sinonimi vazifasini bajarib, “o‘zgarishlar tezlig”ini va “doimiy oqim” semalarini ta’kidlaydi. Bu she’riy tasvirlilikni, obrazlilikni kuchaytiradi.

Mazkur satrlarda leksik sinonim sifatida baholash mumkin bo‘lgan boqiy va sobit leksemalari ham qatnashgan. Bu ikki so‘zda “doimiylik”, “barqarorlik” semalari bilan birlashadi, biroq semantik strukturasida biroz farqlar seziladi. Boqiy “abadiylik”, “o‘zgarmaslik”ni kengroq ma’noda anglatadi, “sobit” leksemasida esa “qo‘zg‘almaslik”, “ma’lum bir joyda qolish” semalari bilan(shaxs yoki joyga nisbatan) ma’nolarini anglatadi. She’rda ushbu so‘zlarning ma’no farqlarini hisobga olib, shaharlarning va daryolarning doimiyligiga alohida urg‘u beriladi. Bu so‘zlarning tanlanishi she’rning mavzuiy va badiiy ifodaliligiga hissa qo‘shadi.

“Har kim o‘z shahrida quygan esdalik” misrasidagi “quygan esdalik” metaforasi ssdaliklarni “quyish” orqali ularning doimiyligi va shaharga singib ketishi



Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

ma'nolarini ifodalaydi. Bu obrazli ifoda she'rga ma'noviy butunlik bag'ishlaydi. She'ring ritmik tuzilishi va uohangiga yuqoridagi leksik va kontekstual sinonimlarning o'rni yaqqol sezilib turadi va uning badiiy ifodasiga ta'sir etadi. Bu elementlar she'ring musiqiyliigi va esda qolarliligiga turtki bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, she'rda leksik va kontekstual sinonimlarning tanlanishi va qo'llanilishi she'ring lingvopoetik xususiyatlarini ta'minlaydi, ma'no va obrazlilikni kuchaytiradi va badiiy ifodaning yuksak darajasini ta'minlaydi. She'rda so'zlarning ma'no va stilistik imkoniyatlaridan mohirona foydalanilganligi kuzatiladi. Antiteza va shunga o'xshash she'riy san'atning boshqa vositalari bilan birgalikda qo'llanilganda sinonimlarning ta'sir kuchi yanada oshadi. Masalan, yuqoridagi kabi metafora, epitet va boshqa badiiy vositalar bilan birga qo'llanilgan sinonimlar obrazning ta'sirini kuchaytiradi.

Til va madaniyat o'rtasidagi chambarchas bog'liqlikni inobatga olgan holda, sinonimlarning milliy-madaniy kontekstdagi roli juda muhimdir. Har bir tilning o'ziga xos madaniy boyligi sinonimlarning tanlanishi va qo'llanilishida yaqqol aks etadi. Ijodkorning "Portret-doston"ida shunday misralarga guvoh bo'lamiz.

Do'stim, hamroh bo'l menga bir nafas,
Oboray seni xotirotinga,
Bo'ktargi qilib uchqur otimga,
Yod diyorida kezaylik bir past.

"Do'stim" undalmasi ushbu she'ring asosiy murojaatini ifodalaydi. "Do'stim" so'zida yaqinlik, ishonch va mehrni semalari mavjud. "Aslida, do'stim, o'rtoq, jo'ra, orqadosh, og'ayni, oshna, ulfat, birodar, hamdam, tomir, cho'p qot leksemalari bilan ham ifodalanishi mumkin edi, ammo bu yerda shoirning lirik maqsadi o'ziga xos tarzda ifodalandi. Birinchidan, misradagi do'st leksemasida



Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

yaqinlik, ishonch va mehrni semalari kuchki boʻrtib turadi. Ikkinchidan, “murojaat”, “kuchli chaqiriq”, “samimiyat” semalari aks etib, hamroh boʻl menga bir nafas gapi bilan hamohanglik kasb etgan va chuqur hissiy aloqaga boʻlgan ehtiyojni aks ettiradi. Bu “bir nafas” vaqti ichida xotirlash, eslash, oʻtmishga qaytish semalari bilan misra “burunligini” taʼminlagan.

Qitʼalar oʻrtasida qisqarib masofalar.

Roʻznomaga qoʻyilar **fazoshumul** vazifalar.

Qoʻshnimiz Oy boʻlib qolar,

Yerimizning yettinchi qitʼasidek

Jugʻrofiya boblarning bittasidek.

Mazkur misrada qoʻllangan birliklar shoir niyatini roʻyobga chiqarishga xizmat qilgan.

Tinim kuni odamlar

Borishar oy sayliga,

Otlanib **nur uchqunlarga**

Joʻnab Somon yoʻliga.

Bu yerda “kosmik kema” tushunchasi “nur uchqun¹” degan soʻz birikmasi bilan ifodalangan. Natijada mazkur okkozional sinonim sheʼrga milliy pafos va milliy oʻziga xoslik va ohangdorlik baxsh etgan hamda muallifning kelajak haqidagi orzulari, oʻylari chuqurroq anglashilishiga sharoit tugʻdirgan.

Sinonimlarning sheʼriyatdagi yana bir muhim vazifasi – obrazlilikni yaratishga yordam berish. Sinonimlar orqali yaratilgan obrazlarni tahlil qilish va ularning sheʼrning mazmuni va emotsional taʼsiriga qanday hissa qoʻshganligini aniqlash



Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

lingvopoetik tahlil usullaridan biridir. Sinonimlar orqali shoir predmetlar, hodisalar va tuygʻularni koʻproq tasviriylar va his etiladigan tarzda ifodalay oladi. Bunda sinonimlarning kontekstdagi rolini oʻrganish va ularning emotsional-ekspressiv taʼsirini aniqlash ekspressiv vazifasini yuzaga keltirishga xizmat qiladi.

Masalan, “Koʻrfaz, yomgʻir va choy” sheʼrida uch obrazni tasvirlar ekan uning tasviriylar ifodasiga va qiyosiga, mazmunni mantiqiy bogʻlashga harakat qilishi goʻzal tasviriylar jarayonni yuzaga keltiradi.

Yomgʻirning tomchilari,
Shu yomgʻirning kumushrang ipdek
Qamchilari
Igna boʻlib sanchilar dengizning yuragiga,
biqiniga, yelkasiga, koʻkragiga.
Dengizdagi koʻm-koʻk suvlar
Shuncha tiniqki,
Eslatadi bizning oʻz koʻk choyimizni,
Chaykalarning davraga toʻplanishi –
Bizning oʻzbekcha oʻz toʻyimizni.

Ushbu sheʼrda uch narsaning taʼrifi milliy obrazlar orqali taʼriflanganligiga va qiyoslash vositasida quyidagi tasvirlarni “chiza” olgan. Tochi – igna, tomchi – kumushrang ip qamchi; tiniq suv – koʻk choyga; chaykalarning toʻplami – oʻzbek toʻylarining toʻplami – oʻzbek toʻiga qiyoslanishi va kontekstual sinonimlari orqali hech kimda uchramaydigan tasvir obyektini yarata olgan.

Sheʼriyatda sinonimlarni tanlash ohang, ritm, qofiya taʼsir qiladi. Baʼzi sinonimlar semantik aloqadorligi bor leksemalar bilan uygʻunlashib, sheʼrning



Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

ritmi va ohangiga yanada kuch bag‘ishlaydi. She’rda ishlatilgan sinonimlarning stilistik xususiyatlarini tahlil qilish va ularning asarning umumiy stiliga qanday ta’sir qilganligini aniqlash tahlillardan biridir.

Misralardan anglaganimiz kabi shoir ko‘rfaz, yomg‘ir va choy so‘zining tasviri asosida milliy qadriyatlarimizning ramzi bogan so‘zlardan foydalanaib tasvir vositasini yarata olgan.

“Shoir tomonidan mahorat bilan yasalgan bunday yangi birliklarga ko‘plab misollar keltirish mumkin: yulduzboz, cho‘liston, jangboz, nafosatboz, xilvatiy, joyparastlik, oybachcha, qishboy, lahzadosh, fazoshumul, parvozkor, tinim kun (dam olish kuni), serkadar, jangiy, shodmijoz, g‘ayratmand, damsoz, salomobod kabi²” kabi sinonimlarni qo‘lashi ma’lum maqsad asosida yuzaga chiqadi. Albatta, bunday betakror va hech kimga o‘xshamaydigan birliklarning topilishi turli sabablar bilan bog‘liq, xususan, ikki zabardast turkiy tilni bilgan va unga hurmat bilan qarb, qo‘llay olgan ijodkordir.

“So‘zga buyuk e’tiqod va ehtirom bilan qaragan, so‘zning zalvori va qudratli zarbini tugal tasavvur qilgan, uning bitmas-tuganmas siru sinoat manbai ekanligiga imon keltirgan Shayxzoda qaysi mavzuni qalamga olmasin, so‘zga zargarona munosabatda bo‘lgan, uning she’rlarida chinakam badiiy yuksiz so‘zlar yo‘q. Shayxzoda she’riyatini yaxlitligicha so‘zdan benazir chaqinlar yaratish bobidagi ulkan ibrat maktabi deyish mumkin. Uning so‘z shaklidagi karomatlari o‘zbek adabiyotidagi betakror mo‘‘jizalar sifatida she’riyat muhiblari qalbiga hamisha hayrat va huzur baxsh etaveradi, shuning uchun ham uning umri ming yillik tilimizning umriday boqiydir³”.



Symposium on Natural and Applied Sciences

Hosted Online from London, United Kingdom

Date: 5th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Iqtisod – moliya, 2007. – B. 103
2. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2009 yil 7-sonidan olindi.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. –Toshkent: O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi, 2007. – B. 66
4. Yo‘ldoshev M.. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili. –Toshkent: “Fan”, 2007.,
5. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983.,
6. Донёров Х., Мирзаев С. Сўз санъати. – Тошкент: Ўзбекистон, 1962.
7. Дўстматов Ҳ. Аския лингвопоэтикаси. – ТОШКЕНТ: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси “Фан” нашриёти, 2015. – В. 88-89
8. Жумаев Т. Умар Боқий асарларининг лисоний хусусиятлари. НДА., 1997.,
9. Исҳоқов Ф., Гулханийнинг “Зарбулмасал” асари. – Тошкент: Фан, 1983.,
10. Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Ўзбекистон республикаси ФА “Фан” нашриёти, 2007. – Б. 84
11. Қўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1975.,